



Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi,
Oila va gender va ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
e-mail: Ishboboyevagulbarchin@gmail.com

BIKARYER OILALARDA TARBIYALANAYOTGAN O'SMIRLARDA IJODIY QOBILIYATLAR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Bikaryer oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirning hayoti davomida egallagan bilim, ko'nikma va malakalar, u bilan yuz bergan barcha ahamiyatli va ta'sirli bo'lgan holatlar aynan ijodkorlikning rivojlanishi darajasida, deb aytib o'tish mumkin. Shu tariqa o'smir hayoti uchun ta'sir etuvchi, uni yo'naltiruvchi, harakatlantiruvchi, motivatsiya beruvchi yoki buning aksi bo'lgan, ya'ni uni to'xtatuvchi, maqsadga erishishiga to'sqinlik qiluvchi tushunchalar, stereotiplar, ustanovkalar va assotsiativ bog'liqliklar mustahkamlanadi. Ushbu maqolada aynan o'smir davridagi ijodkorlik xususiyatlarini tadqiq qilish va bu holat ustida ish olib borish atrof-muhit va vositalarning ta'sir qilishini ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, o'rganiladi.*

Аннотация. *Можно сказать, что знания, умения, навыки, приобретенные подростком на протяжении всей его жизни, воспитываемым в семьях-бикарьерах, все значимые и впечатляющие события, произошедшие с ним, находятся именно на уровне развития творчества. Таким образом, закрепляются понятия, стереотипы, установки и ассоциативные связи, влияющие на жизнь подростка, направляющие, мотивирующие, мотивирующие или, наоборот, останавливающие его, препятствующие достижению цели. В статье анализируется и изучается влияние окружающей среды и средств на исследование особенностей творчества в подростковом возрасте и работа над этим состоянием с социально-психологической точки зрения.*

Annotation. *It can be said that the knowledge, skills, and abilities acquired by a teenager during their lifetime, raised in a single-career family, and all the significant and influential situations that occurred with him, are at the level of development of creativity. In this way, concepts, stereotypes, attitudes, and associative connections are strengthened that influence the life of a teenager, guide, motivate, motivate, or vice versa stop them, prevent them from achieving their goals. This article analyzes and studies the influence of the environment and means from a socio-psychological perspective on the study of the characteristics of creativity in adolescence and work on this situation.*

Tayanch soʻzlar: intellektual, oʻsmir, tafakkur, intellektual faollik, kreativlik, belgili, simvulli va obrazli tafakkur, ijodiy fikrlash, qiziquvchanlik, originallik, tasavvur, ichki hissiyot, empatiya.

Ключевые слова: интеллектуальное, подросток, мышление, интеллектуальная активность, креативность, знаковое, символическое и образное мышление, творческое мышление, любознательность, оригинальность, воображение, внутреннее чувство, эмпатия.

Keywords: intellectual, adolescent, thinking, intellectual activity, creativity, symbolic and figurative thinking, creative thinking, curiosity, originality, imagination, inner feeling, empathy.

Kirish. Bugungi sifat va rivojlanish davrida oʻsmirlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhim omillardan biridir. Bu davrda oʻsmirlarning oʻz shaxsiy fikrlari paydo boʻladi. Ularda oʻz qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Oʻsmirlarning yangi ijtimoiy jihatdan tashkil topgan va rang-barang faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos, sharoit va vosita sifatida xizmat qiladi [6]. Psixologlarning fikricha, yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolgʻiz biologik jihatdan yetilishi taraqqiyot natijasi boʻlmay, balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining oʻzgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo boʻlishi natijasida oʻsmirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi taʼlim va tarbiya berishni aniq tashkil qilishga oʻsmirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli sifatida qarab boʻlmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy sharoitlar rolini konkret hayot sharoitlari va faoliyatlarining roliga almashtirib boʻlmaydi.

Asosiy qism. Intellektual jarayonlarning ijodiy tarkibiy qismlari doimo koʻplab olimlarning eʼtiborini tortdi. Biroq ijodkorlikni oʻrganish boʻyicha koʻpgina tadqiqotlar aslida bir xil ijodiy qobiliyatlardagi individual farqlarda hisobga olmadi, garchi turli odamlar bu qobiliyatlarga teng darajada ega emasligi eʼtirof etilsa-da. Ijodkorlikdagi individual farqlarga qiziqish intellektni testometrik oʻrganish sohasidagi aniq yutuqlar, shuningdek, bu sohada kam boʻlmagan aniq kamchiliklar bilan bogʻliq holda paydo boʻldi [8].

Oʻsmir tafakkurining nazariy darajaga qanchalik tez koʻtarila olishi, oʻquv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektining ham rivojlanishini belgilab beradi. Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy-sababiy bogʻlanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yoʻnaltirilgan aqliy faoliyatdir. Oʻsmirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik oʻta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga oʻz layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. Oʻsmirning

Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda o'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining shaxslar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda o'zgarishi, hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

kattalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar turli-farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o'tkaza oladilar hamda ma'lum bir masala bo'yicha muqobil variantlarni taqqoslay oladilar. O'smir tafakkuri ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi.

O'smir o'quvchilarni ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi [4].

Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda o'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining shaxslar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda o'zgarishi hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. O'smirlarning yangi ijtimoiy jihatdan tashkil topgan va rang-baranglashtirilgan faoliyatiga uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos bo'lgan sharoit va vosita ta'sir qiladi. O'smirlar psixologik taraqqiyotining biologik omillariga ular ongiga og'ir, ba'zan kuchi yetmaydigan bo'lib ko'ringan, ularni jiddiy psixik inqirozga va hayajonga soladigan, masalan, o'smirlar uchun xarakterli bo'lgan norozilik, qo'pollik, qaysarlik, o'z-o'zini analiz qilishga moyillik subyektiv olamga va shunga o'xshash holatlarni keltirib chiqaradigan vaziyatlar muhim ahamiyatga ega [10].

Tadqiqotimiz davomida biz tomonimizdan o'tkazilgan dastlabki metodika Dj.Bruner tomonidan ishlab chiqilgan "Tafakkur va kreativlik testi" metodikasining modifikatsiyalashtirilgan shakli bo'lib, unda yuqoridagi bobda keltirilgan sinaluvchilarimizning barchasi (n=133) ishtirok etdi. Mazkur metodika shkalalarining tahlilini amalga oshirishdan oldin natijalarning metodika shkalasidagi ko'rsatkichlarga qay darajada muvofiq kelishini tekshirish uchun tavsiflovchi statistikadan foydalanishni o'rinli deb bildik.

1-jadval

**Dj.Brunerning “Tafakkur va kreativlik testi” metodikasini
tavsiflovchi statistika**

Tafakkur turlari	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	Assimetriya	Eksess
Predmetli tafakkur	7,8947	3,70353	,092	-,971
Simvolli tafakkur	7,5564	3,31300	,211	-,509
Belgili tafakkur	9,5789	3,73803	-,533	-,996
Obrazli tafakkur	8,5263	3,72457	-,060	-1,074
Kreativlik	8,6541	3,22642	,133	-,735

Yuqoridagi jadval orqali bizda olingan metodikalarni tavsiflovchi statistik qiymatlar haqida ma’lumot paydo bo’ldi. Bizning e’tiborimizni tortgan natijalar barcha shkalalar bo’yicha aniqlandi. Predmetli tafakkur shkalasi bo’yicha minimal qiymat 1 ball, maksimal qiymat 8 ball, o‘rtacha qiymat 7,89 ball, standart og‘ish 3,70 ballni tashkil etgan holda, eksess ko‘rsatkichi -0,971 ballni tashkil etdi. Mazkur shkala bo’yicha manfiy eksess aniqlandi. Simvolli tafakkur shkalasi bo’yicha ham minimal qiymat 1 ball, maksimal qiymat 8 ball, o‘rtacha qiymat 7,55 ball, standart og‘ish 3,31 ballni tashkil etib, eksess qiymati -1,509 ball bo‘lgan holda manfiy eksess aniqlandi.

Belgili tafakkur shkalasi bo’yicha minimal qiymat 1 ball, maksimal qiymat 8 ball, o‘rtacha qiymat 9,57 ball, standart og‘ish 3,73 ballni tashkil etgan holda, eksess ko‘rsatkichi -0,996 ballni tashkil etdi. Obrazli tafakkur shkalasi bo’yicha minimal qiymat 1 ball, maksimal qiymat 8 ball, o‘rtacha qiymat 8,52 ball, standart og‘ish 3,72 ballni tashkil etgan holda, eksess ko‘rsatkichi -1,074 ballni tashkil etdi. Kreativlik shkalasi bo’yicha minimal qiymat 1 ball, maksimal qiymat 8 ball, o‘rtacha qiymat 8,65 ball, standart og‘ish 3,22 ballni tashkil etgan holda, eksess ko‘rsatkichi -0,133 ballni tashkil etdi. Yuqorida keltirilgan bitta shkala (obrazli tafakkur)da eksess qiymatlari me’yordan chap tarafga o‘gish bo‘lganligi uchun natijalarda ahamiyatsiz patalogik o‘zgarishlar borligini kuzatishimiz mumkin.

Tafakkurning rivojlanishidagi ushbu harakat bu o‘smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirilishi ehtiyoj va intilish hisoblanadi. O‘smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo‘la boshlaydi. Chunki

bu davrdagi o'quvchilar atrof-olamdagi bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishida progress sodir bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot va dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi [3].

1-jadval

**Vishnyakovaning “Ijodkorlik” metodikasini
tavsiflovchi statistika**

Shkalalar	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Assimetriya	Eksess
Ijodiy fikrlash	5,5865	2,10385	-,053	-,907
Qiziquvchanlik	5,0526	1,93968	-,157	-,607
Originallik	4,9023	2,12441	,038	-,559
Tasavvur	5,5940	2,31608	-,241	-,852
Ichki hissiyot	5,2857	1,99838	-,090	-,432
Empatiya	4,8947	2,04222	-,002	-,642
Yumor hissi	4,3609	2,07926	,221	-,587
Kasbga nisbatan ijobiy munosabat	4,6391	1,92014	,129	-,512

Vishnyakovaning “Ijodkorlik” metodikasining tavsiflovchi statistikasida ijodiy fikrlash shkalasi bo'yicha minimal qiymat 1 ball, maksimal qiymat 12 ball, o'rtacha qiymat 5,58 ball, standart og'ish esa 2,10 ballni tashkil etdi. Qiziquvchanlik shkalasi bo'yicha minimal qiymat 1 ball, maksimal qiymat 12 ball, o'rtacha qiymat 5,05 ball, standart og'ish esa 1,93 ballni tashkil etdi. Originallik shkalasi bo'yicha minimal qiymat 1 ball, maksimal qiymat 12 ball, o'rtacha qiymat 4,90 ball, standart og'ish esa 2,12 ballni tashkil etdi.

Tasavvur shkalasi bo'yicha minimal qiymat 1 ball, maksimal qiymat 12 ball, o'rtacha qiymat 5,59 ball, standart og'ish esa 2,31 ballni tashkil etdi. Ichki hissiyot shkalasi bo'yicha minimal qiymat 1 ball, maksimal qiymat 12 ball, o'rtacha qiymat 5,28 ball, standart og'ish esa 1,99 ballni tashkil etdi. Empatiya shkalasi bo'yicha minimal qiymat 1 ball,

maksimal qiymat 12 ball, o'rtacha qiymat 4,89 ball, standart og'ish esa 2,04 ballni tashkil etdi. Yumor hissi shkalasi bo'yicha minimal qiymat 1 ball, maksimal qiymat 12 ball, o'rtacha qiymat 4,36 ball, standart og'ish esa 2,07 ballni tashkil etdi.

Kasbga nisbatan ijobiy munosabat shkalasi bo'yicha minimal qiymat 1 ball, maksimal qiymat 12 ball, o'rtacha qiymat 4,63 ball, standart og'ish esa 1,92 ballni tashkil etdi. Mazkur metodikaning barcha shkala ko'rsatkichlarida esa ahamiyatli va me'yordan chiqish darajasidagi qiymatlar kuzatilmagan. Navbatdagi tahlilni amalga oshirishda biz tavsiflovchi statistik ma'lumotlarga tayangan holda natijalarimizning Kolmogorov-Smirnov mezonni asosida normal taqsimlanish qonuniga muvofiqligini tekshirish orqali qiymatlarga mos mezonni tanlashga muvaffaq bo'lamiz.

Uch so'z metodikasining Kolmogorov-Smirnov mezonni bo'yicha tahliliga ko'ra ijodiy tasavvur shkalasi ($Z=2,781$; $p \leq 0,001$) aniqlanib, metodikaning noparametrik mezon bo'yicha tahlilini amalga oshirish mumkinligi ko'rinadi.

3-jadval

**“Ijodkorlik” metodikasining Kolmogorov-Smirnov mezonni
bo'yicha tahlili**

Ko'rsatkichlar	Z qiymat	Ishonchlilik darajasi
Ijodiy fikrlash	1,136	,151
Qiziquvchanlik	1,479	,025*
Originallik	1,295	,070
Tasavvur	1,398	,040*
Ichki hissiyot	1,306	,066
Empatiya	1,408	,038*
Yumor hissi	1,175	,126
Kasbga nisbatan ijobiy munosabat	1,510	,021*

Vishnyakovaning “Ijodkorlik” metodikasining Kolmogorov-Smirnov mezonni bo'yicha tahliliga ko'ra, ijodiy fikrlash shkalasi bo'yicha ($Z=1,136$; $p \leq 0,151$), qiziquvchanlik shkalasi bo'yicha ($Z=1,479$; $p \leq 0,05$), originallik shkalasi bo'yicha ($Z=1,295$; $p \leq 0,070$), tasavvur shkalasi bo'yicha ($Z=1,398$; $p \leq 0,05$), ichki hissiyot shkalasi bo'yicha ($Z=1,306$; $p \leq 0,066$), empatiya shkalasi bo'yicha ($Z=1,408$; $p \leq 0,05$), yumor hissi

shkalasi bo'yicha ($Z=1,175$; $p \leq 0,126$), kasbga nisbatan ijobiy munosabat shkalasi bo'yicha ($Z=1,510$; $p \leq 0,05$) natijalar qayd etilib, xuddi yuqorida bo'lganidek, ushbu metodika noparametrik hamda parametrik mezonlarga solib tekshirish joiz. Qiziquvchanlik shkalasi bo'yicha eng yuqori natijalar qayd etilib, buni talabalaridagi psixolingvistik qobiliyatlarning rivojlanishida kognitiv determinantlardan biri sifatida talabalaridagi o'quv motivining baland bo'lishi hamda ulardagi til o'rganishga bo'lgan qiziquvchanlik darajasining yuqoriligi bo'lishi mumkinligi asoslanmoqda. O'smirlik davridagi ijodiy qobiliyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan omillarni tashqi va ichki omillarga bo'lish mumkin.

Tashqi omillarga mikromuhitning quyidagi omillari kiradi: oilaviy ta'limning tabiati va tizimi, maktabning ta'siri va tengdoshlar bilan muloqot.

Ichki omillariga quyidagilar kiradi: shaxsning yoshi va individual psixologik xususiyatlari, gender farqlari, aqliy faoliyatni tashkil etish uslublari [11].

O'smirni qayta qurish davrida xarakterning urg'usi eng aniq namoyon bo'ladi, shuning uchun aynan shu yoshda shaxsiyatning barcha tuzilmalarini sifat jihatidan qayta qurish sodir bo'ladi, yangi psixologik shakllanishlar paydo bo'ladi va shakllanadi. Zamonaviy jamiyatda ijodiy, mustaqil, yangi tajribaga ochiq, nostandart vaziyatlarda yechim topishga qodir, voqelikka ijodiy munosabatda bo'lishni shakllantirish talablarga bog'liq. Oddiy narsalardan g'ayrioddiy narsalarni ajrata oladigan ijodkor inson, hayotning barcha jabhalarida qadrlanadi [2].

4-jadval

Dj.Bruner metodikasining Mann-Uittni mezoni bo'yicha jins tafovuti tahlili

Tafakkur turlari	Jins	O'rtacha rang	Ranglar summasi	U	p
Simvolli tafakkur	Yigitlar	65,80	3553,00	2068,000	,765
	Qizlar	67,82	5358,00		
Belgili tafakkur	Yigitlar	72,49	3914,50	1836,500	,171
	Qizlar	63,25	4996,50		
Obrazli tafakkur	Yigitlar	65,87	3557,00	2072,000	,779
	Qizlar	67,77	5354,00		

Mazkur metodikaning asosiy urg'usi tafakkurning strategik yo'nalishlarini tadqiq etishga yo'naltirilgan. Strategiya – bu ma'lum natijalarga olib kelishi kerakligi ma'nosida ma'lum maqsadlarga erishish uchun xizmat qiladigan ma'lumotlarni olish, saqlash va ishlatishning qandaydir usuli. Strategiyaning maqsadlari, xususan, quyidagilarni ta'minlashdan iborat: 1. Ish uchun tegishli bo'lgan holatlarning minimal soni bilan to'qnashuv natijasida berilgan konsepsiyani shakllantirish. 2. Subyekt tushunchalarni shakllantirish yo'lida ko'rishi kerak bo'lgan misollar sonidan qat'i nazar, konsepsiyaning paydo bo'lishi faktiga subyektiv ishonch; 3. Xotira va mantiqiy fikrlashning minimal yuki bilan ishonchli konsepsiyani shakllantirish. 4. Konsepsiyani shakllantirishdan oldin, ma'lum bir toifaga noto'g'ri topshiriqlar sonini minimallashtirish.

Dj.Bruner metodikasining Mann-Uittni mezonini bo'yicha jins tafovuti tahliliga ko'ra, simvolli tafakkur shkalasida yigitlar 65,80, qizlar 67,82 o'rtacha rang ko'rsatkichini qayd etib ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar aniqlanmadi ($U=2068,000$; $p \leq 0,765$). Bundan qizlar hamda yigitlarda simvolli belgilar idrok etilib, tilni o'rganish jihati deyarli bir xil ekan, degan xulosaga kelinadi. Belgili tafakkur shkalasida yigitlarda o'rtacha rang summasi 72,49 ball, qizlarda esa 63,25 ball, ranglar summasi mos ravishda yigitlarda 3914,50 ball, qizlarda 4996,50 ballni tashkil etdi ($U=1836,500$; $p \leq 0,171$). Yigitlarda qizlarga nisbatan ustunlik qayd etilishi – ularda yoshlikdan ko'proq texnika vositalari bilan "do'st tutinish" hollarining ko'pligi evaziga yaxlit belgilarni anglash yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

Ijodkorlik testining jins tafovutlari tahliliga muvofiq quyidagi ishonch darajasi mavjud bo'lmagan ahamiyatsiz farqlar aniqlanganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, qiziquvchanlik shkalasida yigitlarda o'rtacha rang summasi 61.44 ball, qizlarda esa 70.80 ball, ranglar summasi mos ravishda yigitlarda 3317,50 ball, qizlarda 5593,50 ballni tashkil etdi ($U=1832,500$; $p \leq 0,163$). Ko'rinib turganidek, qizlarda qiziquvchanlik yigitlarga nisbatan yuqoriroq ekan.

Dj.Bruner metodikasining Mann-Uittni mezonini bo'yicha jins tafovuti tahliliga ko'ra, simvolli tafakkur shkalasida yigitlar 65,80, qizlar 67,82 o'rtacha rang ko'rsatkichini qayd etib ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar aniqlanmadi ($U=2068,000$; $p \leq 0,765$).

5-jadval

“Ijodkorlik” metodikasining Mann-Uitni mezonini bo'yicha jins tafovuti tahlili

Ko'rsatkichlar	Jins	O'rtacha rang	Ranglar summasi	U	p
Qiziquvchanlik	Yigitlar	61,44	3317,50	1832,500	,163
	Qizlar	70,80	5593,50		
Tasavvur	Yigitlar	67,54	3647,00	2104,000	,893
	Qizlar	66,63	5264,00		
Empatiya	Yigitlar	69,16	3734,50	2016,500	,589
	Qizlar	65,53	5176,50		
Kasbga nisbatan ijobiy munosabat	Yigitlar	69,26	3740,00	2011,000	,571
	Qizlar	65,46	5171,00		

Tasavvur shkalasida yigitlarda o'rtacha rang summasi 67.54 ball, qizlarda esa 66.63 ball, ranglar summasi mos ravishda yigitlarda 3647,00 ball, qizlarda 5264,00 ballni tashkil etdi ($U=2104,000$; $p\leq 0,893$). Ushbu shkalada esa, aksincha, yigitlar yetkachilik qilib ularning tasavvur ko'lami qizlarnikiga nisbatan balandroq bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Empatiya ko'rsatkichi bo'yicha yigitlarda o'rtacha rang summasi 69.16 ball, qizlarda esa 65.53 ball, ranglar summasi mos ravishda yigitlarda 3734,50 ball, qizlarda 5176,50 ballni tashkil etdi ($U=2016,500$; $p\leq 0,589$). Ma'lum bo'lishicha, yigitlarda hamdardlik qizlarga nisbatan yuqori ifodalanib, bu bilvositalik xarakterida bo'lib, ko'proq tashqi emas, ichki tarafga yo'nalgan bo'ladi, shuningdek, ularda tilshunoslikning nozik qirralarini mohiyatan anglash uchun empatik qobiliyatlarning yuqori darajasi ham kerak bo'lganligi uchun yigitlarda natijalar biroz o'zgacha tus olgan. Ijod psixologiyasining tadqiqotchilari o'smirlik davrida ijodkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi shartlarni aniqlaydilar [12].

Birinchidan, tasavvurning rivojlanishi tafakkurning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Agar ilgari eydetik, aniq tasvirlar haqida gapirish mumkin bo'lsa, unda o'smirlik davrida vizual tushunchalardan to'g'ri tushunchalarga o'tish sodir bo'ladi, fikrlashda uning rivojlanishi tushunchalarning shakllanishi bilan birga to'xtab qolgandek tuyuladi, fantaziyada davom etadi.

Ikkinchidan, o'smirlarning bunday fazilatlari aqliy kuchning o'sishi, faollikka alohida moyillik, mayllarning kengligi, o'z kuchini ishga solishga intilish, biror narsaning yaratuvchisi bo'lishga intilish, mustaqillikka bo'lgan ehtiyoj.

Uchinchidan, ogʻzaki, adabiy ijod oʻsmirga eng yaqin va oʻzini namoyon qilishning eng adekvat shakliga aylanadi [5]. Oʻquvchi ulgʻaygan sari uning hayotiy tajribasi boyib boradi, shu asosda yangi obrazlar, kombinatsiyalar yaratadi va ularni ifodalash zarurligini his qiladi. Oʻsmirning aqliy faoliyatining asosiy xususiyati – mavhum fikrlash qobiliyatining oʻsishi, aniq-majoziy va mavhum fikrlash oʻrtasidagi nisbatning ikkinchisi foydasiga oʻzgarishi. Shu bilan birga, fikrlashning majoziy komponenti yoʻqolmaydi, regressiyaga uchramaydi, balki tafakkurning umumiy tuzilishida muhim rol oʻynashda davom etib, saqlanib qoladi va rivojlanadi.

I.N.Andreyeva hissiy ijodkorlikni hissiy intellekt bilan bogʻliq holda koʻrib chiqadi. Ammo muallif, hissiy ijodkorlik hissiy intellektga qaraganda kengroq tushunchadir, chunki u hissiy reaksiyaning yangiligini anglatadi. Hissiy intellekt konvergent fikrlash bilan bogʻliq, emotsional ijod esa divergent fikrlashga tayanadi[9].

O.I.Vlasova hissiy ijodkorlikni his-tuygʻularni haqiqiy va samarali boshdan kechirish qobiliyati sifatida tavsiflaydi. Shu bilan birga, hissiy ijodkorlik hissiyotlarning qulayligi va nostandart ifodasida namoyon boʻladigan, ammo vaziyat va hissiy xatti-harakatlarning maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda, umumiy hissiy qobiliyatning bir qismidir. Shuni taʼkidlash kerakki, hissiy ijodkorlik muayyan hissiy holatning ijobiy yoki aksincha, salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi. Oʻsmirlik, shubhasiz, ijodkorlikni rivojlantirish uchun sezgir davrdir. Bir tomondan, oʻsmirlar ijodiy faollikni namoyon etadilar, ikkinchi tomondan, muammolarni hal qilishda oʻzini va mustaqillikka intilish harakatlari koʻzga tashlanadi [5].

Oʻsmirlik davrida ijodkorlik koʻrsatkichlari oshadi, lekin, qoida tariqasida, maʼlum ijtimoiy-psixologik omillar taʼsiri ostida va qulay sharoitlar yaratilishi natijasida. Oʻsmirlik davridagi ijodkorlik sharoitlarini ularning yangi yoki oʻzgaruvchan taʼlim sharoitlariga moslashish jarayoni bilan bogʻliqligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, maktab tizimi baʼzi hollarda oʻquvchilarning ijodkorligini ochish emas, balki blokirovka qilishi mumkin. Ijodkorlikning rivojlanishiga toʻsqinlik qiluvchi tashqi omillar orasida tadqiqotchilar, atrof-muhit (ota-onalar, oʻqituvchilar, doʻstlar) tomonidan qoʻllab-quvvatlanmaslik, yetarli darajada moddiy taʼminot va boshqalarni sabab qilib koʻrsatishadi. Oʻsmir ijodini rivojlantirishning muhim sharti uning individualligini roʻyobga chiqarishdir, chunki oʻquvchining ijodiy imkoniyatlarini ochib berish uning ichki salohiyatiga, uning qobiliyatlarini tushunishiga, yaʼni oʻz-oʻzini anglash shaklidagi “men”iga bogʻliq. Oʻrta maktabda taʼlim

O.I.Vlasova hissiy ijodkorlikni his-tuygʻularni haqiqiy va samarali boshdan kechirish qobiliyati sifatida tavsiflaydi. Shu bilan birga, hissiy ijodkorlik hissiyotlarning qulayligi va nostandart ifodasida namoyon boʻladigan, ammo vaziyat va hissiy xatti-harakatlarning maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda, umumiy hissiy qobiliyatning bir qismidir.

jarayonida hissiy ijodkorlikni samarali rivojlantirish umuman ijodiy jarayonlarga maqsadli ta'sir qilish, shuningdek, qulay boyitilgan ijodiy ta'lim muhiti uchun sharoitlarni ta'minlash mumkin [9].

O'smirning his-tuyg'ularini nazorat qilish qiyin, ular zo'ravonlik bilan namoyon bo'ladi. Ular ehtiros, jahldorlik, asabiylashish, o'z his-tuyg'ularini nazorat qila olmaslik, xatti-harakatlarning o'tkirligi bilan ajralib turadi. O'zlariga nisbatan eng kichik adolatsizlikni his qilganda, o'smirlar o'zlarining beparvoligidan afsuslanishlariga qaramay, osongina "portlash"ga qodir. Ushbu yosh bosqichida bolaning rivojlanishini to'g'ri yo'nalishda qo'llab-quvvatlash muhimdir.

5-jadval

**Dj.Bruner metodikasining Mann-Uittni mezoni bo'yicha
yo'nalishlar doirasida tahlili**

Tafakkur turlari	Yo'nalish	O'rtacha rang	Ranglar summasi	U	p
Simvolli tafakkur	O'zbek	60,17	3911,00	1766,000	,044*
	Xorij	73,53	5000,00		
Belgili tafakkur	O'zbek	59,69	3880,00	1735,000	,031*
	Xorij	73,99	5031,00		
Obrazli tafakkur	O'zbek	57,64	3746,50	1601,500	,006**
	Xorij	75,95	5164,50		

Dj.Bruner metodikasining Mann-Uittni mezoni bo'yicha yo'nalishlar doirasida tahlilni amalga oshirar ekanmiz. ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar kuzatilganini bilib olishimiz mumkin. Simvolli tafakkur shkalasi bo'yicha o'zbek filologiyasi talabalarida o'rtacha rang summasi 60,71 ni, ranglar summasi 3911,00 ni, xorijiy filologiya yo'nalishi talabalarida o'rtacha rang summasi 60,71 ni, ranglar summasi 3911,00 ni ($U=1766,000$; $p \leq 0,05$) qayd etdi. Bundan ma'lum bo'ladiki, xorijiy tillar yo'nalishida o'quvchi talabalarda yangi tilni o'rganish jarayonida simvolli tafakkur tarzlarida ham o'sish kuzatilib borar ekan [1].

Belgili tafakkur shkalasi bo'yicha o'zbek filologiyasi talabalarida o'rtacha rang summasi 59,69 ni, ranglar summasi 3880,00 ni, xorijiy filologiya yo'nalishi talabalarida o'rtacha rang summasi 73,99 ni, ranglar summasi 5031,00 ni ($U=1735,000$; $p \leq 0,05$), ko'rinadiki, ushbu ko'rsatkich bo'yicha ham xorijiy tillar yo'nalishidagi talabalar ustunlik

qayd etgan bo'lib, bu omilni ulardagi tillar diffrensiatsiatsiyasi jarayoniga to'liq kirishuv bevositalik ko'rinishidaligi, shuningdek, boshqa til o'rganishda uning lug'at manbalari, genezisiga e'tibor berish kerakligi uchun ko'proq belgilardan foydalanish ko'lamining tez-tez takrorlanishi sodir bo'lishi sababli ham deya xulosalar chiqarishimizga imkon beradi.

O'smirlarning ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish muammosi haqida ko'p aytiladi va yoziladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Vigotskiy, ijodkorlik o'smirlik rivojlanishining normasidir. Boladagi fantaziyaning namoyon bo'lishi kattalarnikiga qaraganda yorqinroq va kutilmagan tarzda namoyon bo'ladi, chunki bola o'z tasavvurining mahsulotiga ko'proq ishonadi va ularni kamroq boshqaradi.

Ijodiy qobiliyatlarning shakllanishi har qanday odamga, har qanday oddiy bolaga xosdir. Siz ularni ochib, rivojlantirishga qodir bo'lishingiz kerak. Ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishi katta va yorqin iste'dodlardan kamtar va ko'zga tashlanmaydigan qobiliyatlarga qadar farq qiladi. Ammo ijodiy jarayonning mohiyati hamma uchun bir xil, farqi, faqat ijodning o'ziga xos materialida, yutuqlar ko'lamida va ularning ijtimoiy ahamiyatida namoyon bo'ladi [12].

An'anaviy ta'lim shakllari bilan o'smir ba'zi ma'lumotlarni o'zlashtirgan holda, muammolarni hal qilish, teoremlarni isbotlash va boshqalar uchun ko'rsatilgan usullarni takrorlay oladi. Biroq u muammoni hal qilish yo'llarini ijodiy izlashda qatnashmaydi va shuning uchun bunday izlanishda tajriba orttirmaydi. Yechilishi kerak bo'lgan muammo qanchalik farq qilsa, o'smirning aniq tajribasi bo'lmasa, qidiruv jarayonining o'zi shunchalik qiyin bo'ladi. Shu sababli, maktab o'quv dasturining materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'rta maktab bitiruvchisi tanlov imtihon topshiriqlarini bajara olmasligi odatiy hol emas, chunki ularni hal qilishda nostandart yondashuvni talab qiladi. Har birimizda ulkan ijodiy salohiyat va uni amalga oshirish uchun cheksiz imkoniyatlar mavjud. Yangi narsalarni yaratish, atrofdagi dunyoni o'zgartirish, inson doimiy ravishda o'sib boradi va o'zini o'zgartiradi. Shunday ekan, yangi g'oyalar va o'ziga xos yechimlarni izlash insonning uzluksiz izlanish, o'z-o'zini bilish va shaxsiy o'sish ko'rinishlaridan biridir.

O'smirning hayoti davomida egallagan bilim, ko'nikma, malakalar, u bilan yuz bergan barcha ahamiyatli va ta'sirli bo'lgan holatlar aynan ijodkorlikning rivojlanishi darajasida deb aytib o'tish mumkin. Shu tariqa, o'smir hayoti uchun ta'sir etuvchi uni yo'naltiruvchi, harakatlantiruvchi, motivatsiya beruvchi yoki bo'lmasa buni aksi bo'lgan uni to'xtatuvchi, maqsadga erishishiga to'sqinlik qiluvchi tushunchalar, stereotiplar, ustanovkalar va assotsiativ bog'liqliklar mustahkamlanadi. Shu sababli

An'anaviy ta'lim shakllari bilan o'smir ba'zi ma'lumotlarni o'zlashtirgan holda, muammolarni hal qilish, teoremlarni isbotlash va boshqalar uchun ko'rsatilgan usullarni takrorlay oladi. Biroq u muammoni hal qilish yo'llarini ijodiy izlashda qatnashmaydi va shuning uchun bunday izlanishda tajriba orttirmaydi.

aynan o'smir davridagi ijodkorlik xususiyatlarini tadqiq qilish va bu holat ustida ish olib borish biz uchun qiziq bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan, olimlarning ilmiy faoliyati yana bir bor aynan bu davrda ijodkorlik xususiyatlarini ahamiyati o'smirlik davrida qay darajada rivojlanishini tahlil qilish muhim ekanligini isbotlamoqda. Bundan tashqari, hozirgi globallashuv zamonida yashayotganimiz, akseleratsiyaning jadal rivoji nafaqat o'smirlarning ijodkorligiga balki boshqa psixologik holatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda [11].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Martynenko.E.V., Matvienko.V.V. Shaxsning ijodiy qobiliyatlari sifatida ijodkorlik tushunchasi va kontseptual asoslari: iqtidorning tuzilishi // Gumanitar va tabiiy fanlarning dolzarb muammolari. - 2013 yil - 5-son. - B. 410-414.
2. Berezina.T.N., Tereshchenko.R.N. Shaxsning hissiy ijodkorligi: ta'rif va tuzilishi // Psixologiya va psixotexnika. - 2012. - No 2. -S. 43-50.
3. Andreyeva.I.N. Hissiy ijodkorlik va uning hissiy intellektdan farqlari // Vyunik Chershpvskiy nomidagi davlat pedagogika universiteti . – Chernishev : ChDPU. - 2006. - 41- son.
4. Угрюмова.Н.В. Ўқитувчилар ўртасида ҳиссий ижодкорликни ривожлантириши учун психологик шартлар // Психология фанлари. - 2014. - 1-сон. - Б.41-44.
5. Барабаш.О.Ю. Бойитилган таълим муҳитида ўсмирларнинг ижодий қобилиятларини намоён қилиш хусусиятлари // Жанубий Сибир педагогика ва психологияси хабарномаси. - 2013 йил. - 4-сон. - С. 30-38
6. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2002.1-2-kitob.
7. Юрай А.Х.Н.А.Мираширова “Общая психология” – Ташкент, 2014.
8. Дружинина В. Психология . Учебник. – Санкт-Петербург, 2003.
9. Дружинин В.Н. Психология обмх способностей. – Санкт-Петербург, 1999.
10. Davletshin M.G., To'uchiyeva S.M. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2002.
11. Karimova V.M. Psixologiya. – Tashkent, 2000.
12. Рубинштейн С.Л. Основби общеу психологии. – Санкт-Петербург: Питер Ком, 1998.
13. Қодиров Б.Р. Способности исклонности. – Тошкент: Фан, 1990.